

QURILISH ISHLARINI OLIB BORISHDA TABIATIMIZGA ZARARLI TA'SIRI

Shakasimov A'zamjon Yuldashbayevich

Andijon shahar 7-son texnikumi, katta o'qituvchi.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada qurilish ishlarini tabiatimizga zararli ta'sirlari va ularni oldini olish, qurilish materiallarini ekologik muhitga zarar etkazmaslik, energiya samaradorligi hamda suv resurslardan oqilona foydalanish kabi ishlarni amalga oshirish ko'satib o'tilgan. Yashil qurilishga o'tish bugungi kunning ekologik nutqai nazardan olganda dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.*

Kalit so'zlar: *atmosfera, yashil qurilish, ekologiya, suv resurslari, energiya samaradorligi, atrof-muhitni muhofaza qilish.*

Annotation: *This article discusses the harmful effects of construction work on our nature and their prevention, the implementation of works such as ensuring that construction materials do not harm the ecological environment, energy efficiency, and the rational use of water resources. The transition to green construction remains one of the urgent tasks in today's environmental discourse.*

Keywords: *atmosphere, green building, ecology, water resources, energy efficiency, environmental protection.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются вредные последствия строительных работ для нашей природы и способы их предотвращения, а также методы реализации таких мероприятий, как обеспечение того, чтобы строительные материалы не наносили вреда окружающей среде, энергоэффективность и рациональное использование водных ресурсов. Переход к экологичное строительству остается одной из актуальных задач в современном экологическом дискурсе.*

Ключевые слова: *атмосфера, экологичное строительство, экология, водные ресурсы, энергоэффективность, охрана окружающей среды.*

KIRISH

Hozirgi kunda qurilish sohasi iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri bo'lsa-da, uning tabiatga salbiy ta'siri ham sezilarli darajada ortib bormoqda.

Atmosfera havosining ifloslanishi, suv resurslarining ortiqcha sarfi tuproq degradatsiyasi ekologik muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Shu sababli, barqaror qurilish konsepsiyalarini joriy etish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Asosiy qism.

Qurilishning zararli ta'sirlarini ko'rib chiqsak.

Atmosfera havosini ifloslanishi:

Qurilish jarayonida chang va transport vositalaridan chiqadigan gazlar havoni ifloslantiradi.

Suni aytib o'tish joizki, respublikamizdsa qurilish obyektlarei soni ortishi oqibatida ularning maydonlaridan chang va qumlar zarrachalarining shamol orqali havoga ko'tareilishi ham havoning ifloslanishiga ta'sir ko'rsatmoqda.

So'ngi yillarda qurilish obyektlari soni 3 barobarga oshib 2025-yil holatiga ko'ra O'zbekistonda qurilish obyektlarining eng katta qismi (69,1%) bino va inshootlar tashkil etadi, bu esa qurilishning asosiy yo'nalishi turar-joy va no-turar-joy binolarini qurish ekanligini ko'rsatadi.

Qolgan ulushni yo'llar, muhandislik kommunikatsiyalarini qurish va rekonstruksiya qilish kabi boshqa turdagi ishlar tashkil etadi. Hisob kitoblarga ko'ra qurilish ishlarida 500 kv.m ochiq qurilish maydonidan yiliga o'tacha 50 tonna chang va qum havoga ko'tarilar ekan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yilgi Davlat dasturi bo'yicha Farmoniga asosan, qurilish maydonida, unga kirib-chiqish yo'llarida chang va qum zarrachalarining havoga ko'tarilishini batraraf etish bo'yicha majburiy talablar shaharsozlik qoidalariga kiritildi.

Shu sababli qurilishdagi atmosfera havosi bilan bog'liq talablarni buzganlik uchun javobgarlikni belgilash orqali chang –to'zonga befarq bo'lmaslik bo'yicha pudratchilarning ma'sulyatini oshirish zaruriyati paydo bo'lmoqda.

Suv resurslari: Beton va boshqa materiallarni tayyorlashda ko'p miqdorda suv sarflanadi, noto'g'ri chiqindilar suv havzalarini ifloslantirishi mumkin.

Qurilishda suv resurslaridan noto'g'ri foydalanish (suvni isrof qilish, ifloslantirish, me'yoriy talablarga rioya qilmaslik, maxsus ruxsatnomasiz foydalanish) suv tanqisligini kuchaytiradi, ekologik muammolarni keltirib chiqaradi, atrof-muhitga zarar yetkazadi va huquqiy oqibatlarga olib keladi.

Suv resurslardan foydalanishda quyidagilarga amal qilish tavsiya etiladi:

- Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, suvni qayta ishlash, yopiq aylanish tizimlarini joriy etish.

- Suv resurslaridan oqilona foydalanish rejasini ishlab chiqish.

- O'zbekiston Respublikasining "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi Qonuniga (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 19-martdagi 82-son qarori bilan tasdiqlangan nizom) qat'iy amal qilish.

Tuproq degratsiyasi: Qurilish maydonlarida tuproq qatlamining buzilishi va eroziya jarayonlari tezlashadi.

Tuproq degradatsiyasi 21-asrning muhim ekologik muammolaridan biri hisoblanadi. Uning ahamiyati, biomassa mahsuldorligiga uning haqiqiy va potentsial suv, havo sifatiga va atmosferaga issiqxona gazlari emissiyasi ta'siri ta'kidlangan. Tuproq va suv manbai ifloslanishi, tuproq degradatsiyasi bilan bog'liqdir.

Tuproq degradatsiyasi iqlim o'zgarishiga bevosita va bilvosita ta'sir qiladi. Aerob sharoitda tuproq organik moddalar mineralizatsiyasi (CO₂) va anaerob (CH₄) sharoitlarda to'g'ridan-to'g'ri ortiqcha gazlar chiqarishiga olib keladi.

Tuproq degradatsiyasi N₂O ni ham emissiyasini oshiradi va bilvosita tuproq degradatsiyasiga mos ravishda biomassa samaradorligining kamayishiga ta'siri ortadi. (Rattan Lal, Terry M. Sobecki, Thomas Iivari, John M. Kimble. 2004).r

Biologik xilma-xillik: Yangi inshootlar qurilishi o'simlik va hayvonlarning tabiiy yashash joylarini toraytiradi.

Qurilish ishlarida biologik xilma-xillik (bioxilma-xillik) deganda, qurilish loyihalarining tabiiy yashash joylari, o'simlik va hayvonot dunyosiga ta'sirini nazarda tutamiz, bunda qurilishlar tabiatga zarar yetkazmasdan, balki uni himoya qilib, barqaror rivojlanishga hissa qo'shishi kerak, ya'ni tabiiy landshaftni saqlash, yashil hududlarni yaratish, yashash joylarini yo'q qilmaslik va ekologik muvozanatni saqlash kabi usullar qo'llaniladi.

Bunga erdan foydalanishda ehtiyotkorlik, yashil infratuzilmani rivojlantirish, tabiiy landshaftni saqlash (yashash joylarini tozalash o'rniga) va mahalliy flora-faunani himoya qilish kiradi.

Zararlarni kamaytirish yo'llari.

Ekologik toza materiallardan foydalanish: Qayta ishlangan beton, energiya tejamkor g'isht va ekologik sertifikatlangan yog'och ishlatish.

Energiya samaradorligi: Qurilishda energiya tejamkor texnologiyalarni qo'llash, masalan, quyosh panellari va issiqlik izollatsiyasi materiallaridan.

Yashil hududlarni saqlash: Qurilishdan keyin daraxt ekish va yashil maydonlarni kengaytirish orqali tabiiy muvozanatni saqlash.

Qonunchilik va nazorat: O'zbekiston Respublikasining "Atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risida" Qonuni ekologik xavfsizlikni ta'minlashda muhim hujjat hisoblanadi.

Xulosa. Qurilish ishlarining tabiatga zararli ta'sirini kamaytirish bugungi kunda nafaqat ekologik, balki ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Qurilish jarayonida ekologik toza materiallardan foydalanish, energiya samaradorligini oshirish, chiqindilarni qayta ishlash va yashil hududlarni kengaytirish orqali atrof muhitga salbiy ta'sirlarni sezilarli darajada kamaytirish mumkin.

Shuningdek, xalqaro standartlar (ISO14001, LEED) va mahalliy qonunchilik hujjatlari (O'zbekiston Respublikasining "Atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni) qurilish kompaniyalarini ekologik ma'sulyatni oshirishga majbur qiladi.

Bu esa nafaqat tabiatni muhofaza qilish, balki aholining sog'lom turmish tarzini ta'minlashga ham xizmat qiladi.

Shuni aytish kerakki, tabiatni asrash bu nafaqat hukumat yoki tashkilotlarning vazifasi, balki har bir insonning kundalik hayotidagi ma'sulyati hamdir.

Kelajakda biznig kichkinagina bir amallarimiz vaqti kelib katta ijobiy natijalarni keltirib chiqarishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Киберт Ч.Дж. «Устойчивое строительство: проектирование и реализация зеленых зданий». Wiley, 2016-450с.
2. UNEP/Sustainable Buildings and Construction.-United Nations Environment Programme, 2020.-120p/
3. Бекмурадов Ш. «Баркарор қурилиш ва атроф-муҳит муҳофазаси». Тошкент. Илм фан. 2021.
4. Sattorov.Z.M. "Qurilish materiallari ekologiyasidan amaliy ishlar" Toshkent-2019 yil.
5. O'zbekiston Respublikasining "Atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni - Toshkent. Adliya vazirligi. 2019-60 b.
6. World Green Building Council – <https://www.worldgbc.org>
7. International Energy Agency (IEA) Reports, 2022.
6. O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi materiallari, 2024-yil.
7. "Yashil texnologiyalar asoslari", To'xtayev A.A., 2021-yil.